

SURXON TONGI

2024-yil
18-dekabr
(chorshanba)
51-son
(17 932)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan

surxontongi.uz

t.me/surxontongi

VILOYAT HOKIMINING TOPSHIRIG'IDAN SO'NG...

Bayram shukhi hukmron har manzil o'zgacha tarovat kasb etgan. Yosh-u keksaning bayramga hamohang kayfiyati bu ayyomdan yanada ko'tarinki. Bezatilgan archa, rangorang yoritgichlar, tovus yanglig' tovlanayotgan zar-u sharlar har birimizni bolaga aylantirib, ertaklarga, mo'jizalar olamiga ishonishga undaydi.

Albatta, Yangi yil qanday kutib olinsa, yil davomida barchamizda ana shunday kayfiyat hukmron bo'ladi, degan qarash, ichki ishonch hamrohimiz. Shu bois-da viloyatimiz bo'ylab Yangi yil bayramini munosib kutib olishimiz uchun zarur tadorik ko'rilgan, ko'rilyotir.

Bu borada viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov kerakli topshiriq va vazifalarni belgilab bergan edi. Xususan, viloyat rahbari Termiz shahrida viloyatning asosiy Yangi yil bayrami archasi o'rnatilgan maydon, unda yaratilgan sharoitlar, yoritilish holati bilan ham shaxsan tanishib, mutasaddilarga aholiga bayram kayfiyatini beruvchi dasturlar va dekoratsiyalarni yaratish vazifasi topshirildi.

Shundan so'ng, vohadoshlarimiz ko'rib, kuzatganlaridek, shahrimiz bayramona ko'rinish kasb etdi. Bayram dekoratsiyalari yasatilib, asosiy bayram bo'ladigan nuqtalarda muhtasham archalar o'rnatildi — o'yinchoqlar, yoritgichlar bilan bezatildi. Qolaversa, Qorbobo va Qorqiz hamda ertak qahramonlari, shuningdek, kunlik namoyish etiladigan dasturlar ishlab chiqildi.

Viloyat hokimi berilgan topshiriqlar ijrosi bilan tanishib, mutasaddilarga tayyorgarlik ishlarini jadallashtirish, viloyatning barcha hududlarida, ko'cha va xiyobonlar, jamoat joylarida bayram kayfiyatini ulashuvchi vositalarni joylashtirish taklifini berdi. Kech kirishi bilan shahrimiz qiyofasi o'zgarib, Archa o'rnatilgan maydonga kelgan kishi o'zini ertaklar olamiga tushib qolgandek his etadi. Ajoyib bayram dasturlari, ertak qahramonlari-yu Qorbobo va Qorqizning ko'rinish berishi esa kayfiyatimizga ta'sir etmay qolmaydi.

— Yangi yil arafasida Termiz o'zgacha qiyofa kasb etarkan, — deydi qumqo'rg'onlik Sevinch Oqboyeva. — Bu yil men uchun omadli keldi. Talaba bo'ldim, kursdoshlarimiz bilan kechki sayrdan olam-olam taassurot o'lyapman. Bezatilgan archa esa maydonga yanada fayz ulashmoqda.

Bayram bayramdek o'tishi mehmonnavoz elning avvaldan tayyorgarlik ko'rishga chog'lanishi bilan yanada zavqli. Yangi yilni munosib kutib olishni maqsad qilgan yurtdoshlarimiz uchun esa ayni qulaylik savdo rastalarida

ham kuzatilayotir. To'kin dasturxon tuzalishi bayramning muhim qismi, an'anasi, axir. Shunday ekan, qanday taom pishirish, shirinliklar tayyorlash borasida allaqachon bahs ketayotir. Ro'yxat tuzib bozorga otlanganlar esa aholiga yaratilgan yengillikdan yanada mamnun. Allaqachon hududlarda arzonlashtirilgan savdo yarmarkalari tashkil etilgan. Voha ahlining bayram

— Yarmarkadagi mahsulotlar bozordagisidan nisbatan arzon narxlarida sotilayotgani xaridorlarda qiziqish uyg'otaypti, — deydi Boysun tumani hokimining axborot xizmati rahbari Yunus Xoliyorov. — Guruch, asal, sut singari mahsulotlar, sitrus mevalar ham arzonlashtirilgan narxda savdoga chiqarilgan.

Termiz shahri va boshqa tuman







YANGI YILGA TADORIK QIZG'IN...

Qish baribir qish-da, kunlar sovigandan sovgan, birinchi qor sevinchi ila ob-havoning injiqliklariga ham ancha ko'nikib qoldik. Tashqarida qanday havo hukmron bo'lishidan qat'i nazar kayfiyatlarimiz yuqori darajada.

dasturxonni yanada to'kin bo'lishini ta'minlab, narx-navoning bir maromda bo'lishiga xizmat qiladigan savdo yarmarkalarida oziq-ovqat deysizmi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xullas, izlovingizga yarasha barchasi badastur.

Angor markaziy dehqon (oziq-ovqat) bozorida tashkil etilgan yarmarkada arzonlashtirilgan narxdagi oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga keng o'rin ajratilgan. Yarmarkada qo'y go'shti 90 ming, mol go'shti esa 70 ming so'mdan savdoga chiqarilgan. Sarxil meva-poliz, dukkakli, sabzavot, sut, tuxum kabi mahsulotlar ham bozordagidan ancha-muncha arzon narxlarida taklif etilmoqda.

Boysunliklar ham o'zlaridagi markaziy dehqon (oziq-ovqat) bozorida ish boshlagan savdo yarmarkasidan mamnun. U yerda ham xaridorlarga fermerlar, dehqon-u bog'bonlar yetishtirgan shirin mevalar, sabzavot-poliz, asal, sut, tuxum, go'sht, baliq singari ko'plab turdagi oziq-ovqat mahsulotlari sifatli hamda arzon narxlarida taqdim etilayotir.



XALQQA HURMAT IFODASI

Siyosat tarixida qonunlar xalqning vijdonini ifodalashi kerakligi haqida ko'p aytilgan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning birinchi majlisida milliy parlamentimizning qonun ijodkorligini kuchaytirish bo'yicha bildirilgan taklif-tashabbuslar shunday hikmatlarga monand bo'ldi.



Firdavs SHARIPOV,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi
deputati

Qonun ijodkorligi borasida milliy tajriba hamda dunyoning ilg'or tendensiyalariga alohida e'tibor qaratilib, davlatimiz rahbarining takliflari bilan parlament faoliyatining asosiy yo'nalishlari ifodalanmoqda.

Parlamentimiz faoliyatidagi yutuqlar bilan birga, e'tibordan chetda qolayotgan masalalar, foydalanilmagan imkoniyatlar, avvalo, qonun loyihalarining sifati bo'yicha e'tirozlar borligi, to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan va aniq ijro mexanizmlariga ega qonunlar ulushi kamligicha qolayotganligi ko'rsatib o'tildi. Albatta, biz xalq vakillari qonun loyihalarining ilmiy asoslanganligiga chuqur e'tibor qaratishimiz darkor. Buning uchun Parlament tadqiqotlari instituti hamda mamlakatimizdagi ilmiy institutlar, "aql markazlari" bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish lozim bo'ladi.

HAYOTGA, ODAMLARGA YAQIN

Hozir raqamlashtirish hayotiy faoliyatimizning asosiy jihatlardan biriga aylanib ulgurdi. Sun'iy intellekt hayotimizga kirib kelmoqda. Uning asosiy maqsadi insonning qobiliyatlari va imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirish hisoblanadi. Uning qamrovi kundan-kun kengaymoqda. Demak, bu masala ham parlament e'tibor markaziga chiqishi, ya'ni sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini yaratish muhim.

Qonun ijodkorligini kuchaytirishimiz zarur bo'lgan soha va munosabatlar ko'p. Masalan, majburiy tibbiy sug'urta tizimini qonun bilan mustahkamlash, franchayzing, kapital bozori, startaplar sohasidagi munosabatlarning qonuniy asoslarini yaratish oldimda turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Biz nafaqat muammolarni hal etish uchun va albatta, zamonaviy sohalarida imkoniyatlarni kengaytirish uchun ham qonunchiligimizni takomillashtirishimiz zarur.

TASHQI VA ICHKI MULOQOT

O'zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosatini izchil amalga oshirish hamda belgilangan strategik rejalarning jadal ijrosini ta'minlash, davlatimizning xalqaro imijini va nufuzini yanada mustahkamlash eng muhim masalalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, Tashqi siyosat konsepsiyasini yangi tahrirda qabul qilishni bugungi davr taqozo etmoqda.

Dunyo mamlakatlarining bir-biriga munosabati, xalqaro tashkilotlarning ahamiyati keyingi yillarda ancha o'zgarib bormoqda. O'zbekiston dunyoga ochilib, faol va tashabbuskor siyosat yuritayotgan davrda Tashqi siyosat konsepsiyamiz jahondagi chaqiriqlarga tayyor bo'lishi muhim hisoblanadi. Ushbu hujjatning yangi tahrirda qabul qilinishi mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish uchun samarali tashqi siyosat olib borishga, do'st va hamkorlarimiz doirasini kengaytirishga, yaqin qo'shnilarimiz bilan mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi, albatta.

Keyingi yillarda mamlakatimizning har tomonlama va jadal rivojlanishida fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini tubdan oshirish, ularning davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan hamkorligini kuchaytirish bo'yicha yangi tizim yaratildi. Ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Jumladan, mamlakatimizning ilk bor yaqin va o'rta muddatga qaratilgan istiqbollari

belgilab olish maqsadida 2021—2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, nodavlat-notijorat tashkilotlarining huquqiy kafolatlarini ta'minlaydigan, zamonaviy demokratik talablarga va xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish vazifalari belgilab olindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mazkur institutga alohida bob ajratilib, konstitutsiyaviy maqom berildi. Qolaversa, fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi yanada takomillashtirilmogda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-124-son Farmoni qabul qilindi. Davlat va jamiyat hayotida fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada oshirishga hamda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarini rivojlantirishda ularning salohiyatidan to'laqonli foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shularga muvofiq ravishda keyingi yillarda Qonunchilik palatasi faoliyatida jamoatchilik ishtiroki yanada kuchaymoqda. Davlatimiz rahbari taklifi asosida Qonunchilik palatasidagi har bir qo'mita qoshida fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlari tuzilishini parlamentimiz tarixidagi yangi bir sahifa, deb tushunaman. Buni bir qancha jihatlari mavjud:

— fuqarolik jamiyati institutlarining qonun ijodkorligi jarayonida ishtiroki kengayadi, jamoatchilik uchun yanada keng yo'l ochiladi;

— Quyi palata bilan ijtimoiy sheriklik yanada mustahkamlanadi;

— nodavlat-notijorat tashkilotlarining huquq va manfaatlari qonun hujjatlarida ifoda etilishi kuchayadi.

Eng muhimi, bular fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat boshqaruvida bevosita ishtirok etishi uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Bularning barchasi ham tashqi muloqot, ham mamlakatimizdagi ichki muloqot jarayonlarida parlamentimizning asosiy demokratik maydon vazifasini bajarishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, yangilangan Konstitutsiyamizda 100 ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolar o'z takliflarini quyi palataga kiritish huquqiga ega ekan kafolatlandi. Endi quyi palatada bu borada yangi tizim yaratiladigan bo'ldi. Fuqarolarning tashabbuslarini faol qo'llab-quvvatlash maqsadida Qonunchilik palatasi huzurida Jamoaviy tashabbuslar bo'yicha parlament komissiyasi tashkil etiladi.

Qonunlar ijrosini doimiy baholab borish bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yildi. Asosiy maqsad, qabul qilingan qonunning amaliyotda ishlashi, odamlar hayotida sezilishi lozim. Bu jihatning yanada samarali ishlashi uchun bundan buyon qonunlar ijrosi Oliy Majlis palatalarining tegishli qo'mitasi va mas'ul ijro etuvchi organ bilan birgalikda o'rganib boriladi. Buning uchun Hukumat bilan Qonunchilik palatasi o'rtasida yanada samarali hamkorlik olib borilishi muhim ahamiyatga ega.

Zero, bularning barchasi, pirovardida davrning o'tkir talablariga javob beradigan, sifatli, amaliyotda samarali ishlaydigan qonunlar qabul qilinishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'z muxbirimiz





Shuxrat NAZAROV,
Termiz tumani hokimi

Hurmatli Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Termiz tumanida ham barcha jabhalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda tumanimiz aholisining turmush darajasini yanada oshirish, "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish, "Sayxunobod tajribasi" asosida aholi bandligini ta'minlash hamda daromadli qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

"ISHIMIZDAN XALQNING KO'NGLI TO'LSA, BAS..."

9 OYDA 17 824 TA ISH O'RNI

Hozirgi kunda Termiz tumani-dagi 30 ta mahalla fuqarolar yig'inida 20 850 ta xonadon, 27 044 ta oilada 111 ming 106 nafar aholi istiqomat qiladi. Joriy yilning o'tgan davrida belgilangan vazifalarning ijrosi ta'minlanishi hisobiga tumanda barcha sohalarida sezilarli darajada o'sishga erishildi. Yil yakunida turib, amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qiladigan bo'lsak, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilga nisbatan 109 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 104 foizga, qurilish-pudrat ishlari 109 foizga, xizmatlar 119 foizga o'sishini ta'minlash bo'yicha barcha choralar ko'rdi.

Prezidentimizning joriy yil 14-mart kuni Sirdaryo viloyatiga tashrifida yurtimizning barcha hududida aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha "Sayxunobod tajribasi"ni joriy etish vazifasi topshirilgan edi. Ayni topshiriqqa binoan, tumanda "Sayxunobod tajribasi"ni joriy etish maqsadida har bir mahalladan 5 tadan xonadon tanlab olinib, ularning daromadini oshirish bo'yicha hokim yordamchilari va tijorat banklaridan vakillar birlashtirilgan hamda tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun imtiyozli kredit paketlari va subsidiyalar ajratish ishlari olib borildi.

Bundan tashqari, 2024-yilda "Yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash" dasturiga ko'ra fuqarolarimiz bandligini ta'minlash choralari ko'rmoqdamiz. 2024-yilning yanvar-sentyabr oylari davomida doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda aholi bandligini ta'minlash maqsadida 17 824 ta ish o'rinlari yaratildi. Bu reja ko'rsatkichi 103,5 foizga bajarilishiga erishildi degani.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish, ularga mehnat qurollari va asbob-uskunalari olib berish bo'yicha 94 nafar fuqaroga 376 million so'mlik subsidiyalar ajratildi. Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'limi hokim yordamchilari bilan birga ish bilan band bo'lmagan yoshlar, xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish orqali bandligini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rganish uchun 679 nafar fuqaro yo'naltirilib, "Ishga marhamat" monomarkazlari va boshqa nodavlat ta'lim muassasalarida o'qishni tamomlashdi. Jumladan, tumandagi "Qahramon" va "Bunyodkor" mahallalarida "Usta-shogird" asosida tikuvchilik yo'nalishlari bo'yicha o'quv kurslari tashkil etilgan.

Tumanda "Kambag'allikni qisqartirish dasturi" bo'yicha tadbirkorlar bilan uchrashuvlar va ularga berilayotgan imtiyozlarni targ'ib qilish orqali ish o'rinlari yaratish tashabbusini bildirib, 830 nafar tadbirkor tomonidan dasturda ishtirok etish uchun arizalar topshirilgan. Birinchi bosqichda ishlab chiqarish bo'yicha 100 million so'mgacha garovsiz kredit berish evaziga 181 ta tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlik shartnomalari imzolandi, ulardan 37 tasiga sertifikat berildi. Shundan, 93 ta tadbirkorga kreditlar ajratildi.

YO'LLARIMIZ SOZ...

Tuman infratuzilmasini

yxshilash maqsadida joriy yilning o'tgan davri mobaynida ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, tumandagi 18 ta mahallada 23 kilometr tuproq yo'l toshlanib ta'mirlandi. Shuningdek, 10,7 kilometr ichki ko'cha asfaltlandi.

Tuman aholisining ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash maqsadida 12 kilometr yangi ichimlik suvi tarmog'i, 3 dona suv nasosi o'rnatilib, aholiga toza ichimlik suvi yetkazib berish ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash maqsadida joriy yil davomida 34 ta transformator mukammal ta'mirlandi, 5 ta transformator punkti yangidan o'rnatildi, 125 kilometr tarmoq mukammal va 255 kilometr tarmoq joriy ta'mirlandi. Bundan tashqari, og'ir hududlarda 306 ta temir-beton ustunlar o'rnatildi.

Gaz ta'minotida ham sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Joriy yilning to'rt oyida 680 metr gaz quvurlarini mukammal ta'mirlash rejalashtirilgan bo'lib, amalda 220 metr ta'mirlash ishlari bajarilgan. Bundan tashqari 320 ta aholi xonadonlarida targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirgan holda energiya tejamkor gaz garelkalari jihozlari o'rnatildi.

Suyultirilgan gaz bilan gazlashtirilgan 19 381 ta aholi xonadonlariga joriy yilning bugungi kuniga qadar 3 480,4 tonna suyultirilgan gaz yetkazib berish rejalashtirilgan bo'lib, amalda 2 942,7 tonna, yoki 147 130 dona maishiy gaz ballonlari orqali rejaqa nisbatan 90 foiz yetkazib berilgan. 2024-2025 yil kuz-qish mavsumiga uzluksiz suyultirilgan gaz bilan ta'minlash maqsadida 1760,7 tonna suyultirilgan gaz yetkazib berish rejalashtirilgan. Hozirga qadar 740 tonna ko'mir mahsuloti tuman ko'mir omborxonasi orqali aholiga tarqatib berildi.

QURILISHDA HAM ILDAM

Tumanning "Yangiobod" mahallasi hududidagi 6,74 gektar yer maydonida "Yangi O'zbekiston" massivi barpo etilmoqda. Mazkur massivning batafsil rejalashtirish loyihasi "Qishloqqurilishloyiha" MCHJ tomonidan ishlab chiqilgan va loyihaga asosan ushbu hududda 18 ta 16 qavatli jami 1600 xonadonli uy-joy, bitta 1 320 o'rinni umumta'lim maktabi, 180 o'rinni maktabgacha ta'lim tashkiloti, 2 ta 1 500 o'rinni Termiz davlat pedagogika instituti o'quv binolari qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunda qurilish ishlari jadal davom etmoqda.

Mazkur "Yangi O'zbekiston" massivi hududida ko'p qavatli turar joy binolarini 2025-yil dekabr oyida foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, ushbu massiv yonidan 112 gektar yer maydonida "Yangi O'zbekiston bog'i" qurilishi olib borilmoqda. Bundan tashqari, Investitsiya dasturi doirasida tumanda joriy yilda foydalanishga topshirilishi belgilangan 14 ta obyektning barchasi foydalanishga topshirildi. Misol uchun, 36-sonli umumta'lim maktabining qo'shimcha 480 o'rinni, 11-sonli umumta'lim maktabining qo'shimcha 180 o'rinni o'quv binosi foydalanishga topshirildi. Tuman kasb-hunar maktabi yotoqxona binosi mukammal ta'mirlandi. 12-sonli umumta'lim maktabida

zamonaviy sport zali qurildi. 16-sonli umumta'lim maktabi to'liq yangidan rekonstruksiya qilindi.

YANGI YIL MAS'ULIYAT YUKLAYDI

Daraxtlarni ekish va parvarishlash sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish, hududlarda "Yashil bog'lar" va "Yashil jamoat parklari"ni barpo etish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 2024-yilning bahor mavsumida tumanning hududiy iqlimidan kelib chiqqan holda 750 ming 250 dona mevali, manzarali hamda buta ko'chatlari ekildi. 2024-yilning kuz mavsumida kuzgi ko'chatlar ekish rejami 380 ming donani tashkil qiladi. Hozirda ko'chat ekish ishlari davom etmoqda. Jumladan, umummilliy loyiha doirasida "Yangiobod" va "Mustaqillik" mahallalarida "Yashil bog'lar" barpo etildi. Qolaversa, 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb nomlandi. Bu nomning o'zi har birimizga atrof-muhitga, tabiatga, ekologiyaga nisbatan mas'uliyat hissini yuklaydi, uni asrashga undaydi. Ayniqsa, bir necha yillar davomida amalga oshirilib kelayotgan "Yashil makon" loyihasi doirasidagi ishlarimizni davom ettirishga, o'zimiz yashab turgan bu olamni yashillikka burkashga chorlaydi.

Kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlarimiz haqida to'xtaladigan bo'lsam, iqtisodiyotni rivojlantirish borasida marrani juda katta oldik. Jumladan, sanoat ishlab chiqarish 1,285 milliard so'mga, qishloq xo'jaligi hajmi 2,415 milliard so'mga, xizmatlar hajmi 2,501 milliard so'mga va qurilish-pudrat ishlari 1,257 milliard so'mga yetkazildi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davom ettirilib, 2,7 mingdan ortiq yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etiladi. Buning uchun, 56 gektar yer maydonlari hamda bo'sh turgan 10 dan ziyod davlat aktivlari ommaviy savdolarga chiqarildi.

Aholi bandligini ta'minlash borasida ham ishlarni davom ettirib, tumanni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish va "Kambag'allikdan farovonlik sari" loyihasi doirasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etamiz. Buning uchun, yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, mahallalarda 1,4 mingdan ziyod mikro va kichik loyihalarni amalga oshiramiz. "Kambag'allikdan farovonlik sari" loyihasi doirasida kambag'allik darajasini 4,9 foizdan 2 foizga qisqartirishga erishamiz.

Amalga oshirgan ishlarimiz bilan bir qatorda, yo'l qo'yilgan kamchiliklarimiz, joylarda o'z yechimini kutayotgan muammolarimiz ham bor. Ushbu muammolarni aniqlash maqsadida sektor rahbarlari mahallalarda sayyor qabullar o'tkazib, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilib bormoqdamiz.

Zero, har bir tumandoshimiz tumanda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan befarq bo'lmasin, ularni tinglayotgan, orzu va maqsadlarini ro'yobga chiqarib, muammo va kamchiliklariga quloq tutayotgan rahbarlar ishdan ko'ngli to'lsin, hayotga, kelajakka nisbatan umid va ishonch bilan boqsin. Bizga bundan ortiq hech narsa kerak emas.

Bugungi zamon tezkorlikni, ilg'orlikni talab etadi. Ana shunday harakat qilsak, barcha sohada rivojlanish, o'sish kuzatiladi. Buni birgina Sariosiyo tumani misolida oladigan bo'lsak, tumanda joriy yilning 9 oyida belgilangan chora-tadbirlar natijasida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'tgan yilga nisbatan o'sishi kuzatildi. Jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 109,4 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi 103,3 foizga, chakana savdo aylanmasi 110,4 foizga, xizmatlar hajmi 110,5 foizga o'sdi.



Abduqodir DONAYEV,
Sariosiyo tumani hokimi

MAQSADIMIZ — AHOLI TURMUSHINI FAROVONLASHTIRISH

KICHIK LOYIHALAR KATTA-KATTA G'OYALARGA ILHOMLANTIRADI

Ushbu sa'y-harakatlar negizida aholi manfaati, turmush farovonligi, munosib shart-sharoit yaratish maqsadi mujassam. Odamlar hayotidan, yaratilgan sharoitlardan mamnun bo'lar ekan, demak, mas'ullar, rahbarlar o'z ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishgan, vazifalarini uddada etishayotir deya ishonch bilan ayta olamiz. Odamlarning doimiy ishi, boshqaradigan tadbirkorligi, dehqonchiligi bo'lar ekan, vaqti behuda ketmaydi. Oilasini boqib, ro'zg'orini tebrata oladi. Shu sabab, birinchi navbatda, tumanda ishbilarmonlik muhitini yaratishga harakat qilmoqdamiz. Tadbirkorlik subyektlari tashkil etilar ekan, nafaqat ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyati yo'lga qo'yiladi, balki yangi ish o'rinlari yaratiladi, tovar va pul aylanmasi yaxshilanadi. Bu davlatning iqtisodiy jihatdan o'sishida ham munosib ulush bo'lib qo'shilishini unutmazlik kerak. Tumanda 2024-yilning 9 oyi davomida 1 148 ta tadbirkorlik subyekti mavjud bo'lib, ularning 184 tasi joriy yilda tashkil etildi. Faoliyatsiz va "nol" hajmda ishlagan korxonalariga ko'rsatilgan yordamlar natijasida 26 ta tadbirkorlik subyekting faoliyati tiklanishiga erishdik.

Kichik loyihalar katta-katta g'oyalarga ilhomlantirishi mumkin. Asosiy, harakat qilishdan, fikrlashdan to'xtamaslik kerak. Bunda muvaffaqiyatga erishgan, o'zini oqlagan tajribalar bizga qanot vazifasini o'taydi. Tumandagi mavjud imkoniyatlardan foydalanilgan holda mahallalarda "Sayxunobod tajribasi"dan foydalanishni yo'lga qo'ydik. Topshiriqqa asosan 1-bosqichda tumandagi har bir mahallada o'ntadan tuman bo'yicha jami 610 ta mikroloyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan bo'lib, amalda 632 ta mikroloyiha ishga tushishi hisobiga 1 123 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

8,4 FOIZDAN 6,4 FOIZGA...

Bandlik masalasi har doim ham dolzarb va e'tibor qaratish muhim bo'lgan jihat. Aholini doimiy ish bilan band qilish uchun ularning ixtisosliklari, qiziqishlarini hisobga olish lozim. Tumanda 15 189 ta ish o'rinlarini yaratish ko'zda tutilgan. Yil davomida 18 406 ta (163,8 foiz) yangi ish o'rinlari tashkil etildi. Tumanning "Mirzo Ulug'bek", "Hamkorlik", "Gulobod" mahallalarida 3 ta mikromarkaz ishga tushirilib, 40 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Tumanda migratsiyadan qaytgan fuqarolar 5 833 nafarni tashkil qiladi, shundan 3 716 nafari ish bilan ta'minlangan bo'lib, 403 nafari rasman ishga qabul qilingan ("YAMMT" IDAK va DSQ), 819 nafari o'zini o'zi band qilganlar, 92 nafari tadbirkorlikka jalb qilinib, kredit ajratildi, 3 nafariga aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasidan subsidiya olib berildi, 1 nafari kasb-hunarga o'qiyapti, 137 nafari yakkahunatdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan, 97 nafari oliy ta'limda tahsil olmoqda, 2 164 nafari norasmiy sektorda band, qolganlari chet elga ishlash uchun qaytib ketganlar va sharoitlari o'rganish jarayonidagi kishilar.

Shuningdek, paxta va g'alladan qisqargan 1 767 gektar yer maydonlari lojlariga bo'lingan holda ishsiz fuqarolarga aukcion orqali ajratib berish belgilangan bo'lib, ajratilgan yer maydonlarida tashkil

etilgan 3 898 ta dehqon xo'jaliklari ro'yxatdan o'tkazildi. Ushbu harakatlarimiz natijasida tumanda kambag'allik darajasi 8,4 foizdan 6,4 foizga kamaydi.

REJA 124 FOIZGA BAJARILDI

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish 2024-yilning 9 oyida tumanda 38,6 million AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan. Misol uchun, "Regar invest" MCHJ tomonidan "Ko'p qavatli turar joy tashkil etish" loyihasi uchun 4,5 million AQSH dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya mablag'lari o'zlashtirildi.

Tumanimiz qishloq xo'jaligi sohasiga ixtisoslashgan hudud hisoblanadi. Aholining asosiy qismi xonadonidagi bo'sh turgan tomorqa yerlaridan unumli foydalanib, bog'dorchilik, dehqonchilik bilan mashg'ul. Ularning boy tajribalari mo'ljil hosil olishlariga, mo'may daromad ko'rishlariga xizmat qilayotir. Ro'zg'oridan ortganlari mahalliy bozorlarga chiqarilish bilan birga eksportga yo'naltirilayotgani ham bor gap. Hisobot davrida Sariosiyo tumanida jami 29,6 million AQSH dollarlik mahsulotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, reja 124 foizga bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 189 foizga ortganini ko'rsatadi. Jumladan, sanoat mahsulotlari eksporti 19,6 million AQSH dollarini hamda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 10 million AQSH dollarini tashkil etmoqda.

HAR SOHADA ILDAMLIK...

Boshqa hududlarda bo'lgani kabi Sariosiyo tumanida ham katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Tuman ulkan qurilish maydoniga aylangan. Yoshlar uchun maktab, bog'cha, sport zallarinig o'ziga xos dizaynda qad rostlayotgani kishini quvontirsa, osmono'par binolar, ko'p qavatli uylarning qurilishi esa tuman ahlining-da munosib shart-sharoitlarda yashash havasini uyg'otgan. 2024-yilda Sariosiyo tumanidagi 33 ta obyektga 243,2 milliard so'mlik qurilish-montaj ishlari yakunlandi. Obyektlarni o'z muddatida va sifatli holatda foydalanishga topshirilishi bo'yicha tasdiqlangan reja-grafik asosida qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda. Jumladan, 34 ta mahallada 81,2 kilometr ichki yo'llar ta'mirlandi, uchta mahalla ichimlik suvi bilan ta'minlandi, bitta maktabda ta'mirlash ishlari olib borildi, 3 ta mahallada aholini bir necha yillardan buyon qiyab kelayotgan tomorqa sug'orish tizimi qayta tiklandi hamda 6 ta mahallaga yangidan yuqori kuchlanishli elektr tarmog'i tortildi. Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan joriy yilda tuman markazidan o'tuvchi yo'l bo'ylab loyiha qiymati 20 million so'mlik 2,2 kilometr masofaga tungi yoritish chiroqlari o'rnatildi.

Elektr energiya ta'minotini yaxshilash bo'yicha jami 1215 dona temir-beton tayanchlar va 24 dona transformator punktlari o'rnatildi. Tumandagi 61 ta mahalla fuqarolar yig'inidan 46 tasidagi 28,6 mingta xonadon markazlashgan holda ichimlik suvidan foydalanadi, foydalanish darajasi 61,9 foizdan 64,4 foizga yetkazildi.

Tumanning "Lutfkor" mahallasi hududidagi "Yangi O'zbekiston" massivida 10,1 kilometr oqava suv tarmog'i tortildi hamda quvvati 1000 m³ bo'lgan oqava suv tozalash inshooti qurilishi amalga oshirilmoqda. Shuningdek, massiv aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 7,8 kilometr

yangi ichimlik suvi tarmog'i tortildi. Tibbiyot muassasasidan uzoq masofada joylashgan 12 ta mahallaga to'liq jihozlangan 22 ta konteyner o'rnatilib, mahalla tibbiyot punktlari tashkil etildi. 2024-yilda yana bitta oilaviy shifokorlik punkti yangidan tashkil etildi. Patronaj tizimining yo'lga qo'yilishi natijasida 107 ta tibbiy brigada tashkillashtirilib, ular tizimli faoliyat yuritmoqda.

REJA VA MAQSADLAR MUSHTRAK...

Iqtisodiyot tarmoqlariga yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha istiqbolli rejalarni amalga oshirishni ko'zlaganmiz. Hududiy mahalliy lashtirish dasturi doirasida yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2,5 milliard so'mga, o'sish sur'atini 115,1 foizga yetkazamiz.

"Chinorsoy" konini o'zlashtirish hisobiga mis, qo'rg'oshin va rux rangli metallarini ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi doirasida 250 million AQSH dollarini o'zlashtirish hamda 500 ta yangi ish o'rinlari yaratish belgilangan.

Qishloq va suv xo'jaligi sohalarini ham rivojlantiramiz. 2025-yilda "Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyili asosida ixtisoslashgan mahallalar o'zlashtirish hamda 500 ta yangi ish o'rinlari yaratish belgilangan. Qishloq va suv xo'jaligi sohalarini ham rivojlantiramiz. 2025-yilda "Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyili asosida ixtisoslashgan mahallalar o'zlashtirish hamda 500 ta yangi ish o'rinlari yaratish belgilangan. Qishloq va suv xo'jaligi sohalarini ham rivojlantiramiz. 2025-yilda "Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyili asosida ixtisoslashgan mahallalar o'zlashtirish hamda 500 ta yangi ish o'rinlari yaratish belgilangan.

Shuningdek, ko'p marta hosil olinadigan yerlarda hozirgi 534 gektar intensiv bog'lar barpo etish dasturini ishlab chiqamiz. Sariosiyo tumanidagi 300 gektar lalmi yerda eksportbop bodom va xandon pista yetishtirishni yo'lga qo'yamiz. Tumanda 132 million m³ bo'lgan "Obizarang" sel suv ombori qurilishi natijasida 6,6 ming gektar sug'oriladigan yerlarning suv ta'minoti yaxshilanishi bilan birgalikda 800 gektar yer maydoni foydalanishga kiritilishiga erishamiz. Asalarichilik yo'nalishida ham 5 ta loyihani amalga oshiramiz.

Yangi yildan ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha e'tiborga molik ishlarni boshlaymiz. 2025-2029-yillarda barcha umumta'lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etiladi. Hududda bog'cha qamrovini 75 foizga oshirishning uddasidan chiqamiz. Tumandagi 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrov darajasini esa 100 foizga yetkazamiz. Buning uchun nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish uchun tumanda 2 ta yangi Davlat xususiy sherkligi asosida hamda 80 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etamiz. Kelgusi 5 yilda 4 ta yangi maktab, 9 ta yangi MTTni qurish, 5 ta maktab, 6 ta MTTni rekonstruksiya qilish ham reja qilingan.

Amalga oshirilgan ishlar, erishganlarimiz o'zimizniki, xalqimizniki. Albatta, bu bilan kifoyalanib qolmasligimiz, to'xtamasligimiz kerak. Kelgusi rejalarimiz ham amalga oshirganlarimiz bilan mushtarak bo'lar ekan, yanada yuqori marralarni zabt etishimiz lozim.

IBRAT MAKTABI

“VILOYAT HOKIMI MENGA MOTIVATSIYA BERDI”

Azmi qat'iy, ishbilarmon, shijoatga to'la, oldinga qarab intiluvchan, faqat o'zini emas, balki jamiyatni o'ylaydigan, davlat rivojiga hissa qo'shishni maqsad qiladigan, ezgu amali, tashabbusi bilan elga o'rnak bo'ladigan insonlarni hech ikkilanmasdan tadbirkor deymiz.



yanada ortdi. Mehmonxonaning yonidan “Besh yulduzli” ikkinchi mehmonxonani ham qurishni maqsad qilgan.

— Viloyat rahbari U. Qosimov tumanimizga tashriflaridan birida tadbirkorlik faoliyatim va loyihalarim taqdimoti bilan tanishgani meni yanada ruhlantirdi. Bir so'z bilan aytganda, viloyat hokimi menga motivatsiya berdi. Bu esa, o'z navbatida, o'z ishimi kengaytirish, ko'plab insonlarni ish bilan ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda qurilish sohasidagi loyihamni hayotga tatbiq etishda o'ziga xos turtki bo'ldi, deya olaman. Xitoylik ishbilarmon doira vakillari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan loyiham tumanidoshlarim farovonligi, hudud iqtisodiy yuksalishiga xizmat qilishi uchun astoydil harakat qilaman, — deydi tadbirkor Azamat To'rayev.

Yana bir narsani alohida ta'kidlash lozimki, qahramonimiz sportga boshqacha mehr va e'tibor bilan qaraydi. O'zi ham sportchilardir zabardast va chiniquqan. Energiyaga, tashabbusga to'la inson. Sport zallari tadbirkorning eng sevimli maskani, mashg'ulotlarni kanda qilmaydi. Ishda ildamligining siri ham balki shundandir.

Ko'pchilik biznesda ikkilanadi, hadik ichra tashabbusini ham yashirib, qiziqishlarini bir chetga surib qo'yadi. Muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar haqida gap ketganda esa “Ular boy-da, qo'llaydigan bor. Puli ko'pning qo'li uzun-da” deb qo'yishadi. Aslida biznes uchun pishiq g'oya, mehnat-u harakat bo'lsa, yetarli ekanligini o'ylab ham ko'rishmaydi. Shu tariqa tajriba oshib, muvaffaqiyat qozonilaveradi. Shuning uchun hamma ham birdaniga tadbirkor bo'lib, muvaffaqiyatga erishib ketavermaydi. Ushbu sohaning ham o'z sir-sinoati bor. Buni esa mehnatdan qochmaydigan, tinimsiz izlanib, boshlagan ishini oxirigacha yetkazmasdan qo'ymaydigan Azamat To'rayev allaqachon anglab yetgan.

Ishning ko'zini biladigan, chapdast va intiluvchan Azamat birdaniga muvaffaqiyatga erishib qolgani yo'q. Bu haqda qahramonimizning o'zi shunday deydi: “Oilamizda tadbirkorlik bilan shug'ullanadiganlar yo'q. Men ham 24 yoshimgacha bir yigitga qirq hunar ham o'z deganlaridek, o'zimni o'tga-cho'g'ga urib, turli yumushlarni bajarib ko'rganman. Kezi kelsa, taksi haydadim, ustaga shogird tushdim, quruvchilik sirlarini ham o'rganishdan qochmadim. Savdoda ham o'zimni sinab ko'rganman. Ilk sotuvchiligimni velosiped sotishdan boshlaganman. Bir narsani angladimki, inson, eng avvalo, o'zi chin dildan nima xohlashini, qaysi ishni bajarsa, undan zavq olib, elga ko'proq foydasi tegishini, bir so'z bilan aytganda, hayotdagi pozitsiyasi, missiyasini anglab yetsa, albatta, natijasi o'zi istaganidek bo'lar ekan”.

Adolat MO'MINOVA

So'nggi yillarda dunyo ilm-fani shiddat bilan rivojlandi. Ayniqsa, insoniyat yuqori texnologiyalar sohasida olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritdi. Bugun har bir davlatning rivojlanish darajasi ishlab chiqarish, sanoat, ijtimoiy-iqtisodiy sohadan tortib mamlakat mudofaa sektorigacha ta'lim, ilm-fan yutuqlari hamda yuqori texnologiyalarning qay darajada tatbiq etilganiga bog'liq. Bu rivojlangan davlatlarning YAIMida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

“INSTITUTIMIZ 15 TA MAKTABGA MAS'UL...”

● NUQTAYI NAZAR

Albatta, bu jarayonda sohaga ajratilayotgan sarmoya va xodimlarning salohiyati asosiy va muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda yurtimizda ham davlatimiz rahbari boshchiligida barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan ulkan chora-tadbirlar amalga oshirildi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, ta'lim sohasi qamrovi kengaydi. Xususiy bog'cha, maktab va oliy ta'limga katta e'tibor qaratilib, xorijning nufuzli oliy ta'lim muassasalari filiallari ochildi. Bu, o'z navbatida, tizimda raqobat muhitini yaratdi. Raqobat esa sifat sari yo'l demakdir. Ta'kidlash joizki, bugungi globalashuv va mafkuraviy kurash sharoitida pedagog xodimlardan ham katta mas'uliyat va bilim talab etiladi.


Sohaga oid raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, o'tgan 7 yilda ta'lim sohasini rivojlantirishga jami 216 trillion so'm mablag' yo'naltirilgan, moddiy-texnik bazani mustahkamlash uchun byudjetdan 19,5 trillion so'm sarflanib, 6 mingta davlat maktabi, 3,5 mingta bog'cha rekonstruksiya qilingan va yangidan qurilgan. Xususiy maktablar soni 27 tadan 500 taga yetgan, nodavlat bog'chalar 250 tadan 30 mingtaga ko'paygan.

Chunonchi, ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish borasida 7 ta yo'nalish bo'yicha vazifalar belgilab berildi. Bunda birinchi bosqichda, Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti pedagoglarda kasb mahoratini oshirishga mas'ul bo'lishi, institutning 12 ta hududiy markazini zamonaviy qiyofaga keltirish va jihozlash uchun yaqin 3 yilda byudjetdan har yili 50 milliard so'm ajratilishi, malaka oshirishda vazirlik — malaka oshirish markazi — maktab va bog'chani bog'laydigan vertikal tizim yo'lga qo'yilishi belgilandi. Bundan tashqari, joylarda 1 ming 300 ta tayanch maktab va 200 ta bog'cha tanlab olinib, yosh pedagoglar uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tashkil etilishi va buning uchun yetakchi o'qituvchilarning ish haqiga 20 foiz ustama qo'shilishi belgilangan.

Shuningdek, ta'lim sifati va zamonaviy texnologiyalarga ham ustuvorlik berilgan.

Xususan, o'rtinchi yo'nalishda ta'limda sifat va raqobatni ta'minlash uchun raqamlashtirish darajasi oshirilishi ko'rsatilgan. Qayd etilishicha, o'tgan 5 yilda 13 ming 500 dan ortiq kompyuter sinfonalari 200 mingta zamonaviy kompyuter bilan ta'minlangan. Kelgusi yil yana 2 mingta kompyuter sinflari yangilanishi belgilangan. Shu bilan birga, singapurlik 16 nafar ekspert matematika va tabiiy fanlar o'qituvchilarining kasb mahoratini oshirishi, pedagoglar sun'iy intellektga asoslangan ta'lim platformasida bilimlarini bir yil davomida muntazam sinovdan o'tkazishi qayd etilgan. Shuningdek, hujjatda teatr va kino san'atidan foydalanish, yoshlar ijodini qo'llab-quvvatlash, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, kitobxonlikni yanada kengaytirish ham belgilangan.

Maktab va maktabgacha ta'lim sohasiga oid belgilangan vazifalar oliy ta'lim tizimiga ham alohida mas'uliyat yuklaydi. Sababi, sohaga oid belgilangan maqsad va vazifalarning qay darajada bajarilishi oliy ta'lim tizimidan chiqayotgan kadrlar salohiyatiga ham bevosita bog'liq. Shu ma'noda aytish kerakki, bu borada biz faoliyat yuritayotgan Termiz davlat pedagogika instituti ham qator rejalar asosida harakat qilmoqda. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Termiz davlat pedagogika instituti bakalavriyatning kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4 kurs talabalari uchun o'quv jarayoni (amaliyotlari) 4+2 ta'lim tamoyili asosida tashkil etilib kelinmoqda. Shunga ko'ra, talabalar amaliyotlarini 4+2 tartibida, ya'ni 4 kunni oliy ta'lim muassasasida, 2 kunni viloyat maktabgacha va maktab ta'lim muassasalarida olib bormoqdalar. Jarayonda asosiy e'tibor olingan nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg'unligini ta'minlashga qaratilmoqda. Talabalar amaliyot davomida faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlaydi va bo'shliqlarni to'ldirishga harakat qilishadi. Bunda ularga tajribali professor-o'qituvchilar asosiy ko'makchi bo'ladi.



Viloyatimizda ta'lim sifati past bo'lgan umumta'lim maktablarida ta'lim sifati va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish reyting ko'rsatkichi mezonlarini yuqori pog'onaga ko'tarish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilaridan mobil metodik guruhtar shakllantirilib, bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, viloyatimizda faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalari Oltinsoy tumanidagi ta'lim sifati past bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan amaliy hamkorlik o'rnatgan. Biz faoliyat yuritayotgan Termiz davlat pedagogika instituti Oltinsoy tumanidagi 15 ta umumiy o'rta ta'lim maktabiga mas'ul bo'lib, ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Mana shu hamkorlik asosida bugungacha bir qator amaliy ishlar bajarildi.

Hozirgi kun talabalariga javob beradigan va oliy ta'lim dasturlariga moslashtirilgan 17 ta fandan o'quv dasturlari ishlab chiqildi hamda amaliyotga tatbiq qilindi. O'quvchilarning bilim darajasini rivojlantirish, oliy ta'limga kirish holatini oshirish maqsadida umumta'lim maktabdagi 17 ta fandan har oyda 2 ta offlayn va 2 ta onlayn tarzda institutning malakali professor-o'qituvchilari tomonidan dars mashg'ulotlari, o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish maqsadida 4 ta seminar-trening, o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish maqsadida 128 ta fan to'garaklari tashkil etildi hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda kutubxonani zamonaviy o'quv hamda badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash maqsadida 200 dan ortiq kitoblar taqdim etildi.

Umuman olganda, mamlakatimizdagi ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar ertangi kun uchun, yoshlar uchun, ularning kelajagi uchun qilinmoqda. Yangi O'zbekistonning bugungi ulkan harakatlari ertaga, albatta, o'z natijalarini ko'rsatishga ishonamiz.

Azizbek XASANOV,

Termiz davlat pedagogika instituti rektori, Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati,

Vikmal AVLIYOQULOV,

O'zMTDP viloyat Kengashi raisi o'rinbosari



“YASHIL MAKON” YARATISHGA YENG SHIMARIB

Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llashish global isishga, tabiiy ofatlarning ko'payishiga olib kelayotgani atrof-muhit va aholi sog'lig'iga zarar yetkazayotgani ayni haqiqat.

Bu kabi muammolarning oldini olish uchun esa, eng avvalo, yashil makonlarni kengaytirish, tabiiy boyliklar zaxirasini ko'paytirish, eng asosiysi, o'zimiz yashab, nafas olib turgan ekologiyani sof holda saqlash uchun ham, bir tup bo'lsa-da, ko'chat ekish dolzarb masaladir. Prezidentimizning 2021-yil 30-dekabrda farmoni ijrosini,

qolaversa, kirib kelayotgan 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va yashil” iqtisodiyot yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan yashil hududlarni kengaytirish, tabiatni asrab-avaylash, toza ekologik muhit yaratish mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida viloyatimizda ham sezilarli ishlar qilinayotir. “Yashil makon” loyihasi doirasida Uzun tumanida ham markaziy ko'chalarni obodonlashtirishga alohida

e'tibor qaratilmoqda. Shu yo'nalishda ishlab chiqilgan loyihada hududning ekologik muhitini yaxshilash va estetik qiyofasini yanada chiroyli qilish maqsadida turli xil manzarali noyob daraxt, kustarnik, atirgullar ekilishi ko'zda tutilgan. Uzun tumanida faoliyat yuritayotgan korxonada tashkilotlar tomonidan kuz mavsumida 15 turdagi 491 800 tup daraxt ko'chatlarini o'tqazish belgilangan. Eng muhimi, ekilayotgan

ko'chatlarning qarovsiz qolmasligi, aholi uchun toza ekologik muhit yaratilishiga bosh-qosh odamlar ham birlashtirilib, sug'orish, ko'chatlarni parvarishlash uchun ham mas'ullarga aniq vazifalar yuklatilgan. Bu esa qilinayotgan ishlar statistika uchun yoki ko'jako'rsingga emas, haqiqatda hudud musaffoligi, aholi farovonligiga xizmat qilishidan dalolat beradi. Ta'kidlash joiz, mazkur tashabbus hudud aholisi

uchun qulay va yashil muhit yaratishga xizmat qilib, ekologik muvozanatni saqlashga ham hissa qo'shadi. Shu bilan birga, obodonlashtirish ishlar tuman markazining jozibadorligini oshirib, sayyohlar va mehmonlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratadi.

B. BOYMURODOV, Uzun tumani prokurori,
A. TOSHOYEV, Uzun tumani prokurori yordamchisi

TASHABBUS

MARKETINGNI KUCHAYTIRSAK...

Bugungi kunda turizm sohasi dunyoda iqtisodiy jihatdan rivojlanishning bir ko'rinishi yoki ajralmas qismi hisoblanadi.

So'nggi yillarda davlatimiz tomonidan ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab olinib, amaliyotga joriy qilinmoqda. Natijada, butunjahon sayyohlik tashkilotining so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston turizm sohasi eng jadal sur'atlarda rivojlanayotgan top-20 mamlakat ro'yxatidan o'rin oldi. O'zbekiston turistlarni qiziqitira oladigan madaniy va moddiy resurslarga boy hudud hisoblanadi. Yurtimizda jahon madaniyati xazinasi deya e'tirof etilgan yuzlab arxitektura yodgorliklari

mavjud. “YUNESKO”ning “Jahon merosi” deb nomlangan ro'yxatiga Buxoro, Xiva, Shahrisabz va Samarqand shaharlarining kiritilganligi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Turizm sohasi infratuzilimasini, yangi turistik resurslarni yaratish, turizm marketing xizmati va boshqa omillar orqali rivojlantirish, tabiiyki, mamlakatga turistlar oqimi ortishiga olib keladi. Buning natijasida davlat iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan investitsiyalar miqdori o'sishiga va pirovardida iqtisodiyotning rivojlanishiga zamin yaratiladi. Buning uchun esa turizm marketingni kuchaytirish, boy madaniy va moddiy meros obyektlarini asrab-avaylab, ulardan oqilona foydalanishimiz lozim.

Kamoliddin SHODIYEV,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

EHTIYOTKORLIK VA XAVFSIZLIK MUHIM

DOLZARB MAVZU

Havo-gaz aralashmasining chaqnashi — yonuvchi gaz va havoning xavfli reaksiya natijasida paydo bo'ladigan chaqnash hodisasidir. Bu hodisa odatda gaz sizib chiqishi va uning havo bilan ma'lum nisbatda aralashishi oqibatida yuzaga keladi.

Chaqnashning sabablari:
— **Gazning sizib chiqishi:** Gaz plitalari, quvurlar yoki uskunalarining nosozligi tufayli gaz sizib chiqishi mumkin.
— **Havoning yomon aylanishi:** Xonadagi ventilyatsiya tizimining samarali ishlamasligi gaz yig'ilishiga sabab bo'ladi.
— **O'ta qizib ketgan sirtlar yoki uchqunlar:** Elektr uskunalaridan chiqadigan uchqunlar yoki juda qizigan jismlar chaqnashni qo'zg'atishi mumkin.
— **Noto'g'ri foydalanish:** Gaz uskunalarining noto'g'ri ishlatilishi yoki texnik xizmat ko'rsatilmamasligi chaqnashga olib kelishi mumkin.

Chaqnashning oldini olish uchun gaz uskunalarini muntazam tekshirish, quvurlar va plitalarning nosozligini oldindan aniqlash zarur. Xonani doimiy ravishda shamollatib turish talab etiladi. Gaz bilan ishlashda ehtiyotkorlik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish muhimdir.
Jovli ESHBOYEV,
Viloyat FVB YOPB bosh inspektori, mayor

HAQDORLAR DIQQATIGA!

“Surxondaryoagrokimyohimoya” XAJ tugatilayotganligi munosabati bilan jamiyatning:
— fuqarolarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari bo'yicha;
— davlat byudjetiga va maqsadli davlat jamg'armalari to'lovlari bo'yicha;
— boshqa kreditorlarning talablari bo'yicha pul summalarini to'lash bo'yicha talablarini qondirish maqsadida jamiyat balansida mavjud bo'lgan, auktsion savdolariga qo'yilgan sanadan boshlab ikki oy mobaynida sotilmagan ko'chmas mulk obyektlari, avtotransport vositalari, qishloq xo'jaligi texnikalari hamda inventar va boshqa asosiy vositalarini baholash summasida haqdorliklarga mos qiymatda qabul qilib olish yuzasidan murojaat qilishingiz mumkinligini ma'lum qilamiz.
Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 19-A uy.
Mo'ljal: viloyat Kasaba uyushmalari binosi yoni.
Telefon: 90 522-82-28, 94 034-82-82.

“Surxondaryoagrokimyohimoya” XAJ tugatish komissiyasi

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi, 1-A uy manzilida joylashgan (STIR 307969054) “Termiz xalqaro savdo markazi” erkin savdo zonasi direksiyasi” DUK O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-maydagi 176-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-dekabrda 17-son bayoniga asosan ixtiyoriy ravishda tugatildi.

Direksiyaning oldidagi kreditor qarzlari bo'yicha 10 (o'n) kun muddatda yozma ravishda yuqorida ko'rsatilgan manzil bo'yicha murojaat qilinishi mumkin.

“Termiz xalqaro savdo markazi” DUK erkin savdo zonasi direksiyasi” DUK

O'ZBEKISTON — MENING BORLIG'IM...

OFANIZDAGI O'DAVLAR

Ayol borki, olam munavvar. Ayol dunyoni tebratadi. Ayol — jamiyat tayanchi, ayol — oila ustuni... Bu kabi jumalarni yana ancha davom ettirish mumkin. Chunki, Ayol — ona, beka, opa, singil, eng asosiysi, u — Ayol. Baxt qasrining kalitidir u.



bajarishdir. Aya musulmon. 1995-yil islom dinini qabul qilgan. Aslo musulmonlar bilan birgalikda yashayotgani uchun emas, bu din haqida yaxshi bilgan holda, qalb amri bilan... 2016-yilda esa muborak Umra safariga borib kelish baxtiga muvassar bo'lgan.

Yurtimizni o'ziga vatan bilgan onaxon allaqachon o'zbek tilini o'rganib, o'zbeklardan-da qoyillatadi, maqol-u ibratli so'zlarni yaxshi biladi, o'z o'rniga qo'yib gapiradigan kayvoni ayoldir. Shuning uchun ham suhbatdoshining mehrini oqzonib, darrov qadrdoniga aylanadi.

Albatta, buning yana bir sababi aya doimiy tarzda kitob, gazeta va jurnallarni mutolaa qilishni kanda qilmaydi.

Tinib-tinchimas Alla Munning kamtarona mehnatlari munosib taqdirlangan. Ko'ksini bezab turgan unvonlar hammaga ibrat va havas... 2021-yilda "Mehnat faxriysi" va joriy yilda "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlanganlar.

Qahramonimiz hozir sog'liklari sabab Koreyada davolanmoqda, maktab, mahalla, "Buvijonlar maktabi", ko'chadagi gullar, o'quvchilar onaxonni, mehribon ayasini juda sog'ingan. Ayniqsa, ayajonning o'zbekcha, rus, koreys tilida aytgan allasini eshitgan har bir inson onalig mehriga to'la mayin ovozdin orom oladi. Yaqinda Ayadan maktub oldim. Maktub boshdan oxirigacha mehrga to'la so'zlar bilan bitilgan. Har bir satrida sog'inchi hissi ufurib turibdi. O'qigan inson ko'zlaridagi ko'zyoshlar yuzini namlaydi, bular shunchaki so'zlar emas, balki odamiylik, ayollikka, onalarga xos samimiylig, qalbdan otilgan tug'yon... Unda shunday diltortar, ohanrabo, Vatanni sevuvchi hech bir insonni befarq qoldirmaydigan so'zlar bor:

"Men O'zbekistonimni sog'indim! O'zbekiston — mening yurtim! O'zbekiston — mening borligim! O'zbekiston — mening boyligim! O'zbekiston — mening Vatanim! O'zbekiston — mening jon-u jahonim! O'zbekiston — mening vujudim! O'zbekistonimni Alloh panohida asrasin! O'zbek xalqining har bir urf-odatini, har bir bayramini, har bir an'anasini qadrlayman. Vatanim tuprog'ini ko'zlarimga surtaman".

Ha, bu kabi xokisor, hammaga ibrat bo'ladigan onalarimiz bor ekan, fikrimiz boshida qayd etilganidek, ayolga berilgan ta'rif bejiz ketmaydi. Bu kabi dardga darmon, so'zlari doston, qalbi osmon onalarimiz bor bo'lishsin.

Dilbar NORMURODOVA,

Xalq deputatlari Termez shahar kengashi deputati, viloyat Targ'ibot guruhi rahbari

BIZGA BARIBIR... MI?

Qo'l telefonlarining hayotimizga kirib kelganiga, turmush tarzimizda undan keng foydalanayotganimizga ancha vaqt bo'ldi. Bugungi kunda uning ijobiy va salbiy ta'sirlari haqida OAVda, jamoat joylarida, oila davrasida, ta'lim muassasalarida juda ko'p muhokamalar, munozaralar, muammoli fikrlar aytilmoqda. Hatto ayrim holatlarda telefonlardagi turli o'yinlarga kirib ketish, ruju qo'yish oqibatida kimlardir og'ir vaziyatlarga tushib qolayotganligini ham inkor qilib bo'lmaydi.



Yaqinda kommunal to'lovlar masalasida shahrimizdagi korxonalaridan biriga bordim. Mijozlarga xizmat ko'rsatadigan xodim yig'ilishga kirgan ekan, ancha vaqt kutishimizga to'g'ri keldi. Xodim yig'ilishdan chiqqanicha uncha-muncha odam kutib qoldik. Shu orada taxminan 30-35 yoshlarga kirgan bir ayol telefonda so'zlashuvni boshladi. Mazvu qaysi bir qarindoshining to'yi haqida, to'yi qara tayyorgarlik to'g'risidagi rejalari, olingan yoki xarid qilinishi zarur bo'lgan narsalar, mahsulotlar, yegulig-u, kiygulik, sarpo va hokazolar haqida bo'ldi. Eng yomoni, ayol xuddi uyida o'tirib gaplashayotganday, baland ovozdagi, "kulish kerak bo'lgan joyida" baralla kulib gaplashar, 20 yoki 30 daqiqadan keyin telefon o'chib qolsa, yana qayta qo'ng'iroqlashib, shu tarzda

suhbatini davom ettiraverdi. Tevarak-atrofdagilarning ayrimlari hayron, ba'zilar kutib zerikkanidan uni tomosha qilish yoinki tinglashdan boshqa chorasi yo'qdek kuzatib turishardi. Turgan gapki, menga o'xshash allakimlar uning madaniyatsizligidan xunob bo'ldi. Va nihoyat, biz intizorlik bilan kutayotgan xodim keldi-yu, go'shakning narigi tomonidagi suhbatdoshiga gurgungini keyin davom ettirishlarini aytib suhbatni to'xtatdi. Suhbat tugaganidan keyin men uning yonimdaligidan foydalanib, bu jamoat joyi ekanligini, bunday joylarda odamlarning diqqatini tortib, baland ovozdagi uzoq vaqt gaplashish yaxshi emasligini, bu holat kimgadir ta'sir qilmasligi, lekin ba'zi kishilarning e'tirozlariga sabab bo'lishini aytish, aytmaslikni o'ylab qoldim. Gaplarimni jamoa joyida to'g'ri qabul qilmasa nima bo'ladi, yo'q joydan asabimni buzib, dilimni xira qilaman, atrofdagilarga ikkovimiz "bepul tomosha" ko'rsatamiz-ku,

degan o'y bilan ikkilanibroq unga murojaat qildim. Ichimdan bir ovoz fikrlarimni ayt, jamiyat a'zolari bir-birimizni tarbiyalashimiz, xulq-atvorimiz, odob-axloqimiz, ma'naviyatimiz, madaniyatimiz bilan aloqador, bilib-bilmasdan qilayotgan xatolarimizni to'g'rilashga yordam berishimiz kerak desa, ikkinchi bir sas "senga nima, odamlar bilan nima ishing bor", der edi. Qolaversa, ayolning tashqi ko'rinishi, o'zini tutishi, gap ohanglarida ham boshqalarni to'g'ri qabul qila olish belgilari yo'q edi. Shuning uchun juda sekin, muloyimlik bilan bir-ikki og'iz gapirdim. Yaxshiyamki, ayol meni gaplarimni to'g'ri qabul qildi, uzr so'radi.

Xuddi shu va shunga o'xshash holatlarga jamoat joylarida har kuni duch kelamiz. Ayniqsa, avtobusdagi suhbatlar...

Odamlarda qachon jamoat joylarida telefonidan foydalanish madaniyati shakllanadi? deb o'ylab qolaman. Buni kim va qanday tarzda amalga oshiradi?!

Nahotki, oddiygina, o'zimiz bilan bog'liq holatni tartibga keltira olmasak?! Boshqalarga faqat o'zimizning suhbatimizni "reklama" qilishimiz, "doston" etishimiz shartmi?

Xullas, bu ham zamonaviylashuv sharoitining bitta muammosidir. Bu borada har birimizning fikrimiz, munosabatimiz bor. Nima bo'lganda ham jamoat joylarida telefonda gaplashish qoidalarga, muluqot madaniyatiga rioya qilsak, maqsadga muvofiq bo'lardi. Hammamiz har xil kayfiyat, turli muammo va tashvishlar bilan yuramiz. Har bir xatti-harakatimiz, amaliymizni faqatgina o'zimizga ma'qul bo'lsa bo'ldi, desak xato qilgan bo'lamiz. Shu bois tevarak-atrofimizdagi jarayonlar, voqea-hodisalarga, kishilarning ruhiyati va kayfiyatiga ham albatta, e'tibor berishimiz darkor.

Shoira DAVLATOVA, TerDU katta o'qituvchisi

KITOBINGIZNI O'QIDIM!

Dunyoda shunday ijodkorlar bor — sirtidan qarasang, xuddi sokin daryoga mengzaydi, ammo yozganlari ancha isyonkor, fikrlari dolg'ali, o'quvchi ko'ngliga zavq-shavq, tarovat bag'ishlaydi.

SUYANGANI QALAM — SHOIRNING

Bu singari ijodkorlarning bor shahdi qalamida bo'ladi. Jismoniy kuch-quvvat, g'ayrat-shijoat ham ba'zan ijtimoiy faollikdan darak beradi, ammo ijodkorning haqiqiy kuchi qalbida, botinida bo'ladi. Shu sababli bo'lsa kerak, nisbatan kamtar, kamsuqum, bo'sh-bayov ko'ringan ayrim ijodkorlar e'tibordan chetda qolib, ba'zi bir — qalamidan ko'ra tili yugurik soxtakorlar, kishilar ko'zi o'ngida ijtimoiy faol, hatto ma'naviy yetuk, haqiqiy "ijodkor" bo'lib gavalansa ham ajab emas. ...Ular shunchaki yel uchirgan parga o'xshaydi, ko'k sari bir-bir havolaydi-yu, yana oyoq ostidagi beqadr xazon singari poymol bo'lib to'z'ib qolishi bor gap.

Ba'zida o'ylab qolasan kishi: qalb nima qandir suyanchi qalbi?! Qalbining bitmas-tuganmas quvvat manbayi nima?! Iymon-e'tiqodmi, mehru-muhabbatmi yoki yorqin iste'dodmi? Rostdan, ba'zan ijodkorning shaxsiyati bilan jo'shqin ijodiy qobiliyati o'rtasida hech bir o'xshashlikni topa olmasiz.

Ba'zan ijodkorlar ham kimdandir, nima qandir suyanchi qalbi: "kimdir meni ham suyasa, yuzaga olib chiqsa, dong taratsam", deya ich-ichidan umidlanadi. Bu ikki toifa orasidagi farq shundaki, haqiqiy ijodkor kimlagadir suykalmaydi, faqat o'z iste'dodiga, yolg'izgina qalamiga suyanadi.

Qumqo'rg'onlik g'oyatda kamtarin, o'z so'zi va ovozigina ega ijodkor O'rol Abrayevni ko'p yillardan beri tanimam. Bir qadar sodda, nihoyatda samimiy, butun umrini matbuotga bag'ishlagan inson. Suhbat jarayonida oddiy hodisalardan ham hayrat hissini tuyaveradi. Ammo har bir masalada o'z nuqtayi nazarini bor. O'rol aka singari ijodkorlarni ko'rganda, shoirlik ham bir qismat-da, degan o'y o'tadi xayoldan. Bir gal gazetada chop etilgan bir turkum she'rlarini o'qib, quvondim va o'ziga telefon qilib, tabrikladim. Ayniqsa, "Zarkamarim — onamsan" nomli she'ri menda o'zgacha taassurot qoldirgan edi. Fikrlarimni ochiq-oydin aytdim, O'rol aka bu maqtovdan biroq noqulaylik sezganday bo'ldi. Shoir ushbu she'rida ona qishlog'i sog'inchi, qishloqdoshlari diydorini qo'msab, ajoyib o'xshatish qiladi:

Bobolarim o'ylashgan, Keyin nomin tashlagan. Qishloqdoshlar jam bo'lib, Zarkamar — deb atashgan.

Sun'iy dengiz istashdi, Ko'chirishdi, qistashdi. Qishlog, daryo ham qoldi, Ayriqliqdan bo'zlashdi.

Men yetti yoshda edim, Ko'zimni yoshlar edim. Nahot Zarkamarimni Suvga "ko'mishar", dedim.

Ushbu jarayonda ijodkor "suvga ko'milish" epizodini o'ziga xos tashbehda ifodalaydi. Bu o'xshatishda originallik, ajoyib topilidig bor. Shoir jilva qilayotgan suvga termilarkan, bexos bolalik xotiralari uyg'un ketadi. Jilvali suv yuzasiga tikilib, uning ostida qolib ketgan, kindik qoni to'kilgan qishlog'ini ajib bir entikish, sog'inchi bilan eslaydi. Sho'x-sha'n bolaligi ko'm-ko'k suv ostidan go'yoki unga jajjigina qo'llarini silkitayotganday bo'ladi.

2024-yilda O'rol Abrayevning "Surxon-nashr" nashriyatida "Ena, ko'klam keldi yana" nomli she'rlar, hikoyalar, publitsistik maqolalar va kichik



nasriy asarlardan iborat kitobi chop etildi. Ushbu kitobdan O'rol Abrayevning turli yillarda yozgan she'r va hikoyalari, badialari o'rin olgan.

"Onalar" she'rida: Momo Havodan beri, Alla aytar onalar. Mujassamdin qalb qo'ri, Orom olar bolalar.

Beshikdadir chaqaloq, O'sib-unar kelajak. Kun sayin talpinadi, Daraxt ochgandek kurtak, deydi.

Fidoyilik, mehr-shafqat faqat onalarga xos xususiyat. Allaning qadimiyligi, onadan bolaga sut orqali o'tadigan mehr-muhabbat, yuksak insoniy egzu fazilatlar va nihoyat, beshikda kun sayin gul kabi ulg'ayayotgan go'dakning shu yotishini endigina atak-chechak qilib ochilib kelayotgan kurtakka, g'unchaga qiyoslaydi. Haqrost, go'dakning vujudidan taraluvchi jannatiy xush bo'y har qanday bag'ritosh, qahri qattiq insonning ko'nglini yumshatadi, o'ziga shaydo qiladi. Ma'sumlik, beg'uborlik, masturalik faqat inson farzandining go'daklik davriga mos bo'lsa, ajab ermas.

"Otam", "Unutma", "Onam", "Do'stinga", "Bu dunyo", "Sen bilan", "Savob bo'ladi" kabi she'rlari o'quvchida chuqur taassurot qoldiradi. "O'tar bo'ldim, jonim-a!" she'rida:

Yonarqulning do'sti bo'ldim, Jonim-a! Nohaqlardan ayro tushdim, Jonim-a! Diyoringga yetarmanmi deb hayhot, Cho'l-u sahra kezar bo'ldim, Jonim-a!

Tanholikda qolmoqlik na, aytmayin, Ko'nglim Senda, muhabbatdan qaytmayin.

Tili bir-u ko'ngli boshqa do'stlarning Borligini Senga endi sotmayin.

Ushbu satrlari orqali umrning naqadar o'tkinchiligi, haq va nohaq biyg'ib bir-biri bilan aralashib yotgan davr-u davron manzaralarini qalamga olib, qo'lib esa afsus-nadomat, ta'ni-yu malomat bo'lgan qilmishlarimiz ustidan yozg'iradi. Bu kabi qaro kechmishlar tumanini faqat va faqat mehr-muhabbat, sevgi va sadoqat, iymon va e'tiqod kabi sof insoniy tuyg'ular yoritajagi haqida xulosaga kelish mumkin.

Umr o'tadi, bir kun kelib, qiyinchilik, jabr-sitamlar unutiladi, faqat sof muhabbatgina mayoq singari insonning o'tmishidan xabar berib, yorqin ziyo taratib, o'ziga chorlab turadi. Tiriklik va hayot haqiqatining asl mohiyati ham shunda. O'rol Abrayevning she'rlarida o'ziga xoslik, xalq og'zaki ijodiga hamohanglik barq urib turadi. Ya'ni sodda, ravon, yasamalikdan yiroq, samimiy.

"Yaxshilik" she'rida: "Yomonlik ko'rsang ham yaxshilik qilgil, yaxshilik sira ham yerda qolmaydi. Ezgulik — odamlar naqsh, deb bilgil, chunki yaxshilikning quli so'imaydi", deya xitob qiladi. Shuningdek, kitobdan joy olgan hikoyalari, kichik masallar, hajvlar, badialar O'rol Abrayevning nasr yo'nalishida ham mohir qalamkash ekanligidan dalolat beradi.

Xolmuhammad TOG'AYMUROD, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

SURXON TONGI va ЗАРЯ СУРХАНА gazetalar tahririyati

MUASSISLAR: Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi va viloyat hokimligi

TAHRIR HAY'ATI: Jo'rabek TO'RAYEV (hay atraisi), Abduraim CHORIYEV, Muhiddin ABDURAHMONOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV

Gazeta 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

BOSH MUHARRIR: Salohiddin NORQOBILOV. BADIY MUHARRIR: Xurshid KARSHIYEV. MAS'UL MUHARRIR: Sayyora ALLAYEVA. SAHIFALOVCHIDIZAYNER: Dildora VOHIDOVA

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Reklama va marketing xizmati: 76 224-23-85. TELEFONLAR: 76 224-23-80, 76 224-22-88. Qo'g'oz bichimi A-2, 2 bosma taboq. Nashr indeksi: 6 500. Bosishga topshirildi — 09:00. Bosildi — 11:00. Adadi 3 520 nusxa. Buyurtma G-

MANZILIMIZ: Termez shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy. BOSMAXONA MANZILI: Termez shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy

Gazeta "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetalar tahririyati bosmaxonasida chop etildi.